

<https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1074>

## UNIONS EXPRESSING THE CONCEPT OF BEAUTY IN THE WORKS OF NAVOI AND BOBUR

Mukhabbat Kurbanova

Niyda Omar Holisdemir universiteti, Fan va adabiyot fakulteti,  
Zamonaviy turkiy tillari va adabiyotlari bolimi professori  
(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat ozbek tili  
va adabiyoti universiteti professori)

[mkurbanova@ohu.edu.tr](mailto:mkurbanova@ohu.edu.tr); [qurbonova2007@mail.ru](mailto:qurbonova2007@mail.ru)

Tursunoy Yandasheva

Doctorant of Tashkent state University,  
Uzbek philology faculty,  
Department of Uzbek linguistics

[yandashova92@mail.ru](mailto:yandashova92@mail.ru)

**Annotatsiya.** Konseptlar qo`llanilishiga ko`ra umummilliy, milliy va individual xarakterga ega bo`ladi. Maqolamizda aynan umummilliy xarakterga ega “go`zallik” konseptining Navoiy va Bobur asarlaridagi milliy-mental va individual jihatlariga e`tibor qaratamiz. Navoiy va Bobur asarlarida “go`zallik” konsepti ma`shuqaning tashqi go`zalligi va ichki dunyosi madhiga bag`ishlangan bo`lib, bu ikki tur go`zallik kategoriyalari o`rni kelganda bir-birini to`ldirish uchun ham xizmat qilgan. Har ikkala ijodkor she`riyatida ham yor go`zalligini ta`riflash asnosida an`anaviy go`zallik qoliplari vujudga kelgan.

**Kalit so`zlar:** Navoiy va Bobur, “go`zallik” konsepti, milliy madaniyat, lingvomadaniy va lingvokognitiv tamoyillar, an`anaviy o`xshatishlar.



**Annotation.** The concepts are general, national and individual in nature. In our article, we focus on the national-mental and individual aspects of the concept of beauty of a national character in the works of Navoi and Babur. In the works of Navoi and Babur, the concept of beauty is dedicated to the praise of the external beauty and the inner world of the lover, and these two types of beauty categories also served to complement each other when appropriate. In the poetry of both artists, traditional beauty patterns have emerged in the description of the beauty of a peri.

**Keywords:** Navoi and Babur, the beauty concept, national culture, linguocultural and linguocognitive principles, traditional analogies.

**Аннотация.** Понятия носят общий, национальный и индивидуальный характер. В нашей статье мы остановимся на национально-ментальных и индивидуальных аспектах концепции красоты национального характера в творчестве Навои и Бабур. В работах Навои и Бабур концепция красоты посвящена восхвалению внешней красоты и внутреннего мира любовника, и эти два типа категорий красоты также служили для того, чтобы дополнять друг друга, когда это было необходимо. В поэзии обоих художников появились традиционные образцы красоты при описании красоты пери.

**Ключевые слова:** Навои и Бабур, концепция красоты, национальная культура, лингвокультурные и лингвокогнитивные принципы, традиционные аналогии.

O`zbek madaniyatining ikki buyuk dahosi – Navoiy va Bobur ijodi hali-hanuz o`zining rang-barangligi, mazmundorligi bilan olimlar va she`riyat ixlosmandlarini o`ziga jalb qilib kelmoqda. Garchi bu ikki ijodkor hayoti va faoliyati, asarlari dunyo madaniyati cho`qqisini zabt etganiga bir necha asrlar



boʻlganiga qaramay, asarlari zaminida yangi-yangi maʼno qirralarining kashf etilishi bu ijodiy merosning mazmun va shakl qatlamlari hali butkul tadqiq etib ulgurilmaganidan darak beradi. Xususan, mazkur ilmiy axborotimizda tahlil qilishni nazarda tutgan “goʻzallik” konsepti doirasidagi ikki buyuk shoirning qarashlari ana shu ulkan bahri ummonning kichik qatralaridan desak yanglishmagan boʻlamiz. “Goʻzallik” konseptini tanlaganimizning boisiga toʻxtaladigan boʻlsak, goʻzallik – dunyoda mavjud jamiki xalqlarga xos umummilliy tushuncha sanaladi.

Bejizga “fanlarning otasi” – falsafa goʻzallikni alohida estetik kategoriya sifatida qabul qilmagan. Zero har qanday milliy madaniyat asosida hayotni sevish, dunyoga goʻzallik nigohi bilan boqish – umrguzaronlikning ajralmas bir uzviga aylanib ulgurgan. Jumladan, oʻzbek milliy mental dunyoqarashida ham goʻzallik oʻzining alohida qimmat va ahamiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Konsept esa bir qancha lingvomadaniy va lingvokognitiv tamoyillardan kelib chiqib, oʻz atrofida qator ilmiy-nazariy fikrlarni, qarashlarni jamlaydi (Laura, 2011,18). Jumladan, konsept bu - oʻzida u yoki bu tilning milliy-mental tabiatini yaqqol aks ettirib, jamiyat aʼzolarining barchasiga birday tushunarli boʻlgan leksik – semantik birlik hisoblanadi. Konseptlar qoʻllanilishiga koʻra umummilliy, milliy va individual xarakterga ega boʻladi. Maqolamizda aynan umummilliy xarakterga ega “goʻzallik” konseptining milliy qadriyat sifatida aks etgan Navoiy va Bobur asarlaridagi milliy-mental va individual jihatlariga eʼtiborimizni qaratishni lozim topdik.

**Asosiy qism.** Bu ikki ijodkor sheʼriyatida “goʻzallik” konsepti, avvalo, ikki jihati bilan diqqatga sazovor sanaladi. Bular: birinchisi - goʻzallikning ilohiyot bilan daxldorligi yaʼni goʻzallikka taalluqli hamma sifat va taʼriflar yolgʻiz Olloh nomiga bagʻishlanganligi masalasi boʻlsa, ikkinchisi ayni shu ilohning oʻzi yaratgan mavjudotlarda oʻz goʻzalligi zarralarini jo qilgan oddiy avom xalq (koʻproq yor, maʼshuqa timsolida), tabiat va ular oʻrtasidagi ijtimoiy-madaniy



munosabatlar doirasida ekanligi hisoblanadi. Biz masalaning birinchi jihati adabiyotshunoslikdagi tasavvuf va ilohiyotdagi soʻfiylik taʼlimotlariga bogʻliq boʻlganligi bois, eʼtiborimizni koʻproq masalaning ikkinchi jihatiga qaratdik. Zero, tadqiq etilishi koʻzda tutilgan goʻzallik konsepti va u bilan bogʻliq lisoniy vositalar ham aynan ikkinchi toifadagi asarlarda yaqqol boʻy koʻrsatgan.

Navoiy va Bobur asarlarida “goʻzallik” konsepti maʼshuqaning tashqi goʻzalligi va ichki dunyosi madhiga bagʻishlangan boʻlib, bu ikki tur goʻzallik kategoriyalari oʻrni kelganda bir-birining oʻrnini toʻldirish uchun ham xizmat qilgan. Fikrimizni misollar asosida isbotlashga harakat qilamiz.

*Qoshi yosinmu deyin, koʻzi qarosinmu deyin,*

*Koʻngluma har birining dard-u balosinmu deyin,* (Navoiy 3)

Mazkur gʻazal matlaʼsining oʻziyoq oʻzbek mumtoz adabiyotida anʼanaviy tashbehga aylanib ulgurgan “kamon qosh”, “qaro koʻz” sifatlarini goʻzallikning anʼanaviy belgilaridan biri sifatida bizga namoyon etmoqda. Koʻzning qaroligi va qoshning kamon kabi yoyligi Sharq xalqlari madaniyatida azal-azaldan goʻzallikning eng asosiy unsuri hisoblanib kelingan. Shu boisdan ham xuddi shu shakldagi oʻxshatishlar nafaqat Navoiy va Bobur ijodining, balki butun Sharq gʻazalchiligi namunalari anʼanaviy goʻzallik “qolip”laridan hisoblanadi (Mahmudov va Xudoyberganova, 2013, 25). Masalan:

*Qaro koʻzum, kel-u mardumligʻ emdi fan qilgʻil,*

*Koʻzum qarosida mardum kibi vatan qilgʻil.*

(Alisher Navoiy) [Navoiy 4]

*Qoshingdin meni oʻqdek tashlar uchun,*

*Yangi oydek qoshingni yo qilibsen.*

(Bobur 8)

Bundan tashqari qoshni kamonga, yangi chiqqan oyga, mehrobgga oʻxshatishlar ham Navoiy va Bobur gʻazallarida koʻplab uchraydi. Misol uchun:



*Qoshi* ollinda Navoiy bersa jon, ayb etmangiz,

*Gar budur mehrob, bir-bir qo`ygusidir barcha bosh.* (Navoiy 6)

Sharq she'riyatining an'anaviy go`zallik parametrlariga aylanib ulgurgan qora qosh, qora ko`z, qora soch, sarvqad, oy yuz, gul yuz kabi lisoniy birliklarni biz go`zallik konseptining "qoliplashgan", "me'yorlashgan" lisoniy vositalari sifatida qabul qilishimiz mumkin. Bunday lisoniy birliklar faqatgina Sharq xalqlariga xos milliy-mental dunyoqarashdan kelib chiqib yuzaga kelgan. G`arbda bunday o`xshatishlar an'ana tusiga kirgan emas. Boisi go`zallikni ifodalovchi vositalar o`sha xalq yoki millatning milliy o`zligidan, tabiatidan, geografik joylashuvi, iqlimidan kelib chiqib paydo bo`ladi. Sharq ayollari esa azaldan qora qoshli, qora ko`zli, oq yuzli ayollar bo`lishgan. Shu boisdan ham ularning husnini tavsiflash uchun aynan *gul, oy, kamon, sarv, sunbul, dur, marjon* kabi aynan shu o`lka tabiatida mavjud leksik birliklar qo`llanilgan. Yana g`azallarga murojaat etsak:

*Yana savdoyi zulfingdin, nigoro,*

*Meni oshuftavu shaydo qilibsən* (Bobur 4)

Bobur qalamiga mansub ushbu misralarda an'anaviy qora soch (*savdoyi zulf*) obrazi gavdalantirilgan. Savdo so`zi turkiy qatlamga xos bo`lmagan, o`zlashma so`z bo`lib, an'anaviy she'riyatda "qora" ma'nosida keng qo`llanilgan. Shuningdek, yorning jamolini oyga mengzash hollari ham aynan bu ikki ijodkor she'riyatining ajralmas bir qismini tashkil etadi. Chunonchi:

*Barcha parilar ey jon, girdingda zor-u hayron,*

*Go`yo erur namoyon, oy tegrasida xola.*

(Bobur11)

*Ul oy o`tlug` yuzin ochsa, Navoiy tegmasun deb ko`z,*

*Muhabbat tuxmidin o`zga ul o`t uzra sipand etmas.*

(Navoiy 9)

*Bu damodam ohim ifsho aylar ul oy ishqini*



*Subhnung bot-bot dami andog`ki aylar mehr fosh. (Navoiy 7)*

Mazkur misralarda yorning yuzi oyga o`xshatilib, yana bir go`zallik belgisini yuzaga chiqarmoqda. Yoki mumtoz she`riyatimizda yana yorning labini shakar-qandga, qaddini alifga, tishini durga o`xshatish hollari ham ko`p uchraydi. Misollarga diqqatimizni qaratamiz:

*Lablaringkim hayf erur teng tutmoq oni qand ila,*

*Sindirur yuz qand bozorini shakkar xand ila.*

*Yo rab, ul shahd-u shakar yo labdurur,*

*Yo magar shahd-u shakar yolabdurur...*

(Navoiy 23)

*Sen gulsen-u, men haqir bulbuldurmen,*

*Sen shu`lasen-u, ul shu`lag`a men kuldurmen...*

(Bobur 21)

Sharq she`riyatida go`zallikni ifodalash uchun bunday an`anaviy o`xshatishlardan tashqari yana arabcha harfiy san`at usulidan ham keng foydalanilgan. Navoiyning hammaga mashhur quyidagi to`rtligini misol keltirmoqchimiz:

*Jonimdagi jim ikki dolingg`a fido,*

*Andin so`ng alif toza niholingg`a fido,*

*Nuni dog`i anbari hilolingg`a fido,*

*Qolg`on ikki nuqta ikki xolingg`a fido. (Navoiy 18)*

Bunda jim, alif, nun- arab harflari hisoblanib, jim yorning ikki qayrilma zulfiga, alif – toza niholi-qaddiga, nun anbari hiloliga va qolgan ikki nuqta ikki xoliga fido qilinadi. Bu kabi beqiyos o`xshatishlarni har ikkala ijodkor she`riyatidan ham ko`plab topish mumkin. Biroq maqsadimiz ular she`riyatini tahlil qilish emas, balki asarlari lingvopoetik jihatlarining naqadar beqiyos ekanligini birgina go`zallik konseptini ifodalovchi so`z, so`z birikmalari, qoyingki, matniy jumlarlar asosida isbotlab berishdir.



## Xulosa

Navoiy va Bobur she'riyati, g'azallari, ruboiylari, tuyuqlarini tahlil qilish asnosida quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

1. Har ikkala ijodkor she'riyatida ham yor go'zalligini ta'riflash asnosida an'anaviy go'zallik qoliplari vujudga kelgan. Bularga *qora qosh*, *qora ko'z*, *qora soch*, *gul yuz*, *oy yuz* kabi so'z birikmalarini misol keltirishimiz mumkin. G'azallarda qo'llanilgan go'zallik o'xshatishlari muallif yashagan o'lka iqlimi, tabiati, geografik joylashuvi va milliy-mental dunyoqarashi asosida yuzaga kelgan. Misol uchun g'azallarda qo'llanilgan kamon, alif, g'azol (kiyik), novak (o'q), sandal kabi leksemalar faqat shu millat etnomadaniyatiga xos leksik birliklar hisoblanadi. Go'zallik konsepti Navoiy va Bobur ijodida ko'proq yorning tashqi ko'rinishi, yana ham aniqrog'i, tana a'zolari – somatik birliklari (yuz, soch, qosh, ko'z, lab, qomat kabi) asosiga qurilgan. Bunday an'anaviy o'xshatishlar keyinchalik Sharq xalqlarida an'anaviy go'zallik mezonlarining yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan. Chunonchi, bugungi kun o'zbek badiiy asarlarida ham go'zallik deganda eng avvalo, ayollarga xos tashqi husn vositalari – yuz, lab, qosh, soch va hokazolarning oy, gul, kamonga mengzalishi aynan Navoiy, Bobur ijodidan meros qolgan an'anaviy o'xshatishlar hisoblanadi. Umuman, Navoiy va Bobur ijodini lingvopoetik jihatdan, lingvokulturologik va kognitiv aspektda tahlil qilish tilshunosligimizga tilimizning yangi-yangi, ochilmagan qirralarini ochishga yordam berishi shubhasiz.

## Adabiyotlar:

1. Keene D.(1988). The pleasure of Japanese Literature / D. Keene. New York : Columbia University Press.
2. Laura A. Janda. (2011). From Cognitive Linguistics to Cultural Linguistics. UNC-Chapel Hill/University of Troms [Web resource]. – Access mode : <http://www.unc.edu/lajanda> = (accessed on: 10.11.2011).



3. Roger Davies, Osamu Ikeno. (2002). The Japanese Mind: Understanding Contemporary Japanese culture. Rutland , Vermont : TUTTLE PUBLISHING.
4. Mahmudov N., Xudoyberganova D. (2013). O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. Toshkent: “Ma’naviyat” .
5. Chzhan Yelena. (2011). Comparative analysis of the concept of beauty in English and Russian. [The Kazakh-American Free University Academic Journal №3](#).
6. Садриева Г.А. (2013). Метафорическаярепрезентацияконцепта «красота» ванглийском, русскомитатарскомязыках. Известия ВГПУ.
7. Аверина М.А., Петер И. Г. (2013). Представление о красоте в русских и английских паремиях // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по матер. XXV междунар. науч.-практ. конф. – Новосибирск: Сибак.
8. Maslova V.A. (2001). Linguistics [Text]: Textbook for University students. - Moscow: Publishing Center "The Academy".
9. Nikitin M.V. (2001). Concept and metaphor [Text] / M.V. Nikitin // Studia linguistica-10: collection of articles. Problems of theory of European languages. - SPb.: Tripon.
10. Neroznak V.P. (1998). From concept to word: the problem of Conceptualism Philology [Text] / V.P. Neroznak // Questions of Philology and methods of teaching foreign languages: collection of scientific papers. - Omsk: Omsk State University.
11. Alisher Navoiy g‘azallari. Tafakkur-net/gazallar/alisher- navoiy.
12. Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallari. Tafakkur-net/gazallar/z.m.bobur.
13. Plotnikova S.N. (2001). Language sign and the concept [text] / / Proceedings of IV Regional Scientific Seminar on the taxonomy of language and speech activity. - Irkutsk.
14. Thesaurus [electronic resource] / www.gramota.ru.

